

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida
“Bukhara International Chemistry Olympiad – 2026 (BICHO-2026)”
xalqaro matematika fan olimpiadasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Respublikamiz hamda chet davlatlardagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar bilim salohiyatini namoyon etish, ularning xalqaro miqyosdagi tengdoshlari bilan raqobatbardosh akademik muhitda bellashuvini ta'minlash maqsadida **“Bukhara International Chemistry Olympiad – 2026 (BICHO-2026)”** xalqaro kimyo fan olimpiadasini (keyingi o'rinlarda — Olimpiada) tashkil etish va o'tkazish tartibini, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Buxoro davlat universiteti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ko'magida uning tashkiliy va uslubiy ta'minoti, ishtirok etish shartlari hamda g'olib va sovrindorlarni aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Olimpiada iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish, fundamental fanlar bilan shug'ullanishga jalb etish, talabalarda ijodiy qobiliyatlar va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishni aniqlash va rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar talabalari o'rtasida xalqaro hamkorlik va madaniyatlararo aloqalarni kengaytirish, shuningdek qadimiy Buxoroning boy ilmiy merosini ommalashtirish maqsadida tashkil etiladi.

3. Olimpiadani o'tkazishga bevosita rahbarlik qilish, Hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyalari tarkibini shakllantirish, Olimpiada g'oliblari va sovrindorlarini tasdiqlash, **“Bukhara International Chemistry Olympiad – 2026 (BICHO-2026)”** nomidagi xalqaro kimyo olimpiadasini tashkil etish va o'tkazish har yili Tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinlarda — Tashkiliy qo'mita) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Olimpiadani o'tkazish vaqti va joyi Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi.

5. Tashkiliy qo'mita Olimpiadani muvaffaqiyatli o'tkazish, tashkiliy va moliyaviy ta'minoti, jumladan Olimpiada maqsadlariga erishish, uni halol raqobat ruhida o'tkazish hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish uchun mas'uldir.

Olimpiadani tashkil etish va o'tkazishda Buxoro davlat universitetining byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, homiy tashkilotlarning moliyaviy-texnik ko'magidan foydalanadi.

6. Olimpiada ingliz tilida tashkil etiladi. Zarur hollarda o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin. Olimpiadada bakalavriyat hamda magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha bosqich talabalari ishtirok eta oladi.

7. Olimpiadada kimyo, kimyoviy texnologiyalar va boshqa unga turdosh bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlarida tahsil oluvchi bakalavriat va magistratura talabalari ishtirok eta oladi.

8. Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish mazkur Nizomga ilova qilingan Olimpiada dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Olimpiada ishtirokchilari

9. Tashkiliy qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbarligida, oliy ta’lim muassasalariga, jumladan xorijiy davlatlardagi va respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalariga Olimpiadada ishtirok etish uchun rasmiy taklifnomalarni - Olimpiada o‘tkaziladigan joy, olimpiada shartlari va muddati ko‘rsatilgan holda yuboradi.

Taklif etilgan oliy ta’lim muassasasi Olimpiadada ishtirok etish uchun jamoa tarkibida — 4 nafar talaba va jamoa rahbaridan iborat jamoani (keyingi o‘rinlarda — jamoa) yuborishi mumkin.

10. Oliy ta’lim muassasasi Olimpiadada ishtirok etishini, rasmiy taklifnomada belgilangan muddatlarda Tashkiliy qo‘mita tomonidan taklif xatida ko‘rsatilgan havola orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda va jamoa tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xatda ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga yuborish orqali tasdiqlaydi. Elektron pochtaga yuborilgan ma’lumotlar jamoani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tashkiliy qo‘mita 20 kun muddatda oliy ta’lim muassasasini zarur ma’lumotlar (O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va boshqalar) haqida xabardor qiladi.

11. Jamoani o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish, zarurat tug‘ilganda kirish hujjatlarini rasmiylashtirish, Tashkiliy qo‘mita bilan yozishmalarni olib borish, jamoaning Olimpiada o‘tkaziladigan joyga kelishi va qaytishini belgilangan muddatlarda tashkil etish hamda Olimpiada qoidalariga rioya etilishi uchun har bir jamoa rahbari mas’ul hisoblanadi.

12. Jamoa tarkibidagi talabalar orasidan bir nafar talaba jamoa yetakchisi sifatida Olimpiadaning appelyatsiya jarayonlarida jamoaning natijalarini muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

13. Olimpiada jarayonida qoidabuzarliklar (jamo a’zolari haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotlar, teng huquqli ishtirok tamoyillarining buzilishi, nomaqbul xulq-atvor va boshqalar) aniqlangan taqdirda, Tashkiliy qo‘mita intizomiy choralar ko‘rish, jumladan Olimpiadaning istalgan bosqichida jamoani diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega.

14. Jamoa ishtirokchilariga kuzatuvchilar (turist sifatida) hamrohlik qilishi mumkin. Ular Olimpiadaning ochilish va yopilish marosimlarida hamda Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilangan musobaqadan tashqari tadbirlarda ishtirok etishlari mumkin.

3-bob. Olimpiada hay'ati va apellyatsiya komissiyasi

15. Olimpiadaning musobaqa qismini o'tkazish uchun Tashkiliy qo'mita tomonidan kimyo sohasida tanilgan olimlardan iborat Olimpiada Hakamlar hay'ati (keying o'rinlarda – Hay'at) tashkil etiladi, uning raisi va ikki nafar o'rinbosari hamda Tashkiliy qo'mita a'zolaridan iborat ishchi guruh tuziladi.

Hay'at tarkibiga Olimpiadalarni o'tkazish va ularda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lgan xorijiy va O'zbekistonlik olimlar kiritiladi. Hay'at raisi va uning bir nafar o'rinbosari xorijiy davlatlar vakillari bo'lishi shart.

Olimpiadaning komissiya tarkibi Hay'at raisi bilan kelishilgan holda mahalliy hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan jamoa rahbarlari (*mutaxassis professor-o'qituvchilar*) tarkibidan shakllantiriladi va hakamlar hay'ati rahbarligida tashkiliy vazifalarni bajaradi.

16. Hay'at Olimpiada topshiriqlarini tuzadi, baholash mezonlari va metodikasini ishlab chiqadi, komissiya a'zolariga topshiriq yechimlarini baholash mezonlari asosida taqdim etadi.

Komissiya a'zolari belgilangan me'zon asosida taqdim etilgan olimpiada ishtirokchilarining shifrlangan natijalarini tekshiradi va ballarni belgilaydi. Har bir natija uch nafar komissiya a'zosi tomonidan tekshiriladi va kelishilgan holda baholanadi. Hay'at raisi rahbarligida Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladigan bayonnomani rasmiylashtiradi.

Shifrlanadigan blankalarda ortiqcha belgilar yoki so'zlar qo'yilganligi aniqlangan holatlarda, ushbu ishtirokchining natijalari tekshirilmaydi va Olimpiadadan dalolatnoma asosida chetlashtiriladi.

Individual bahslarda olimpiada topshiriqlari 5 ta masaladan, jamoaviy bahslarda 3 ta masaladan iborat bo'ladi va ingliz, rus, o'zbek tillarida taqdim etiladi.

Olimpiadadan bir kun oldin Hay'at topshiriqlarni tayyorlaydi, ingliz, rus, o'zbek tillariga tarjima qiladi, har bir ishtirokchi uchun uchta tilda bittadan nusxa ko'paytiradi va konvertlarga joylaydi. So'ngra konvertlar maxsus konteynerga joylanib, muhrlangan holda ishchi guruh rahbariga topshiriladi.

17. Topshiriqlarni tayyorlash davrida Tashkiliy qo'mita Hay'at a'zolari uchun alohida xona, zarur ish, ovqatlanish va dam olish sharoitlarini ta'minlaydi. Ushbu davrda Hay'at a'zolari bilan aloqa faqat Tashkiliy qo'mita tomonidan taqdim etilgan aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi.

18. Hay'at raisi moddiy rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish miqdori Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi va Olimpiada xarajatlar smetasiga kiritiladi.

19. Olimpiada ishtirokchilari va jamoalarining huquqlarini ta'minlash maqsadida apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. U jamoadagi talabalar orasidan jamoa yetakchisining murojaatini qabul qiladi va ko'rib chiqadi, nizoli masalalarni hal etadi hamda ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi Tashkiliy qo'mita tomonidan shakllantiriladi va Hay'at a'zolaridan kamida uch nafar nufuzli mutaxassisni o'z ichiga oladi.

Apellyatsiya jarayonlari faqatgina individual musoboqa natijalari bo'yicha ko'rib chiqiladi va olimpiada jarayonlarida Hay'at raisi tomonidan belgilangan muddatda o'tkaziladi.

Jamoaviy bahslarda ballar jarayonning o'zida e'lon qilinadi va e'tirozlar belgilangan komissiya tomonidan joyida ko'rib chiqiladi.

4-bob. Olimpiadani moliyalashtirish

20. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar (jamo va Hay'at a'zolarining ovqatlanishi va yashashi, g'oliblarni taqdirlash va boshqa xarajatlar) Buxoro davlat universitetining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Tashkiliy qo'mita bilan kelishilgan holda jamoalarni O'zbekiston Respublikasining Buxoro xalqaro aeroportlarida kutib olish va Olimpiada o'tkaziladigan joyga olib borish hamda qaytarish tashkil etilishi mumkin.

21. Olimpiada o'tkaziladigan joyga borish va qaytish (aviaqatnov) xarajatlari ishtirok etuvchi jamoa tashkiloti tomonidan qoplanadi.

22. Tashkiliy qo'mita jamoa a'zolarining yashash va ovqatlanish sharoitlarini o'zgartirish bo'yicha ayrim iltimoslarini qanoatlantirishi mumkin, biroq bunday o'zgarishlar bilan bog'liq xarajatlarni to'lashni kafolatlamaydi.

5-bob. Olimpiadani o'tkazish tartibi

23. Olimpiada individual hamda jamoaviy bahslar ko'rinishida o'tkaziladi. Olimpiadaning musoboqa qismi bir kun davomida 4 soat davom etadi. Ishtirokchilar ishini kuzatish uchun jamoa kuzatuvchilari va maslahatchilar tayinlanadi.

24. Barcha ishtirokchilar joylashgandan so'ng, jamoa rahbarlari topshiriqlar joylangan konteynerning butligini tekshiradilar. So'ng Tashkiliy qo'mita vakili ishtirokida konteyner ochiladi va ishtirokchilarga topshiriqlar konvertlarda tarqatiladi. Savollar yuzaga kelganda, ular Tashkiliy qo'mita orqali ko'rib chiqiladi.

25. Har bir ishtirokchi topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Yechimlar Tashkiliy qo'mita tomonidan taqdim etilgan A4 formatdagi 10 varaqda yoziladi. Har bir topshiriq faqat varaqning bir tomonida yoziladi va ishtirokchi tomonidan imzolanadi.

26. Ishtirokchilarga ruchka, qalam, Mendeleev davriy sistemasi beriladi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida ichimlik suvi, ovqatlanish va zarurat tug‘ilganda tibbiy yordam ta’minlanadi.

27. Ishtirokchi xonadan chiqishi zarur bo‘lgan taqdirda, u qaytguniga qadar topshiriqlarini ishchi guruh rahbariga topshiradi. Tartibni buzgan ishtirokchini ishchi guruh rahbari xonadan chiqarib yuborish huquqiga ega bo‘lib, dalolatnoma rasmiylashtiradi.

28. Belgilangan vaqt tugagach, yechim varaqalari ishchi guruh a’zolari tomonidan yig‘iladi va maxsus konteynerga joylanadi hamda kuzatuvchilar guruhi rahbarlari tomonidan imzolanadi va Hay’at raisiga yetkaziladi.

29. Hay’at raisi barcha Hay’at a’zolari ishtirokida konteynerni ochadi. Hay’at tomonidan komissiya a’zolariga tarqatiladi va Hay’at a’zolari nazoratida komissiya a’zolari tomonidan belgilangan tartibda tekshiriladi.

30. Har bir masalani baholash mezoni, metodikasi va kriteriyasi Hay’at raisi tomonidan taqdim etiladi, umumiy holda quyidagi mezonga rioya qilinadi:

- to‘liq va to‘g‘ri yechim — 10 ball;
- kichik xatolar bilan yechim — 7 ball;
- qisman yechim — 4 ball;
- mantiqiy urinish mavjud — 1 ball;
- yechim mavjud emas — 0 ball.

31. Baholash natijalari jamoaning rahbarlariga taqdim etiladi.

32. Baholash natijalariga e’tiroz bo‘lsa, apellyatsiya komissiyasi qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazadi va xulosa Hay’atga taqdim etiladi.

33. Yakuniy qaror Hay’at ovoz berishi orqali qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lsa, Hay’at raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

34. Olimpiada g‘oliblari 1:2:3 nisbatda oltin, kumush va bronza medallari hamda diplomlar bilan taqdirlanadi.

35. Taqdirlash marosimi Olimpiadaning yopilish marosimida tantanali ravishda o‘tkaziladi.

36. Har bir jamoa a’zosi, rahbarlari Olimpiadada ishtirok etganligini tasdiqlovchi sertifikat bilan taqdirlanadi.